

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / SENTABR /
9-SON, I-QISM

Google
scholar

RePEc
RESEARCH PAPERS
IN ECONOMICS



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, sentabr.
I-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INVESTITSION FAOLIYATNI RAG'BATLANTIRISH VA BAHOLASHNING XORIJIY Tajribasi	34
Aytmuratova Ulbike Jalgasovna BREND POZITSİYALASH STRATEGİYASINI ISHLAB CHIQUISHDA BOZOR TADQIQOTLARI METODIKASI	41
Jumayeva Zulfiya Qayumovna GLOBAL MOLIYAVIY BEQARORLIKNING O'ZBEKISTON MILLIY VALYUTASI BARQARORLIGIGA TA'SIRI	46
Davlatova Nilufar Avazovna KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MAKROIQTISODIY SAMARADORLIGI: MANZILLI SAMARADORLIK INDEKSI (MSI) ASOSIDA BANDLIK DASTURLARINI BAHOLASH (O'ZBEKISTON MISOLIDA)	50
Eshmurodov Adhamjon Rahmonjonovich АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ ООО «SAM PULSAR DISTRIBUTORS»	61
Мусаева Шоира Азимовна KICHIK BIZNESDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINING O'RNI VA AHAMIYATI	68
Tukhtasinova Intizorkhon Sherzod qizi GLOBALLASHUV DAVRIDA JAHON IQTISODIYOTIDAGI O'ZGARISHLARNING YANGI O'ZBEKISTONGA TA'SIRI	73
Jahongir Nurulloevich Jurayev YASHIL INNOVATSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGI	77
Nasulloeva Oydiyoy Saidovna ПРИВЛЕЧЕНИЕ МОЛОДЁЖИ К ЭКСПОРТУ ЦИФРОВЫХ УСЛУГ: МЕХАНИЗМ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ	82
Палвонова Севара Бахромовна MINTAQA IQTISODIYOTINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHDA IT-PARKLARNING NAZARIY VA INSTITUTSIONAL ASOSLARI	94
Sultanova Zuxra Jaksilikovna INSON KAPITALINING KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI	99
Baymuradov Shoxrux Maxmudovich Dilmurodov Komiljon Ahmad o'g'li RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI MONITORING QILISHNING INTEGRATSIYALASHGAN UZEMS MODELI	103
Bobobekov Ergash Abdumalikovich AUDIT JARAYONIDA MOLIYAVIY FIRIBGARLIK BELGILARINI ANIQLASHNING TAHLILIY TARTIB-TAOMILLARINI TAKOMILLASHTIRISH	108
Xusanov Shuxrat Burxanovich FROM AUTOMATION TO STANDARDIZATION: OPERATIONS MANAGEMENT CHALLENGES IN UZBEKISTAN'S HOSPITALITY SECTOR	115
Asal Kadirova СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ГОСТИНИЧНЫМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ НА ОСНОВЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ В УЗБЕКИСТАНЕ	125
Нигматова Сугдиена Жалолiddin кизи	



SANOAT 4.0 TEXNOLOGIYALARINING RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJLANISHI VA UZOQ MUDDATLI IQTISODIY O'SISHDAGI ROLI	131
Komilova Dilafruz Rustam qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAISHIY XIZMAT KO'RSATISH TARMOG'INI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY-IQTISODIY AHAMIYATI	137
Samiyeva Gulnoza Toxirovna	
O'taganov Fazliddin Isroil o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СТРАХОВАНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТУРИСТСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ	142
Эргашева Файёза Боходир кизи	
МЕХАНИЗМЫ ГАРМОНИЗАЦИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО УЧЕТА И ОТЧЕТНОСТИ В МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАКТИКЕ	146
Жиенбаева Айсанем Оразбаевна	
XORAZM VILOYATIDA SHOLI YETISHTIRISHNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA UNING RESPUBLIKA SHOLICHILIGIDAGI O'RNI	154
Matrasulova Feruza Baxodirovna	
YIRIK KORXONALARDA SOLIQ NAZORATINING HUQUQIY ASOSLARI VA HORIIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI	159
Qo'shaqov Asrorjon Nematjonovich	
ФОРМИРОВАНИЕ РЕЗУЛЬТАТИВНОЙ СТРУКТУРЫ БЮДЖЕТНЫХ ПРОГРАММ В СФЕРЕ СТРОИТЕЛЬСТВА И ЖИЛИЩНО-КОММУНАЛЬНОГО ХОЗЯЙСТВА: МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ	166
Мирзаева Дилдора Иномовна	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI VA KREDIT RISKLARI HOLATINI BAHOLASH (DAVLAT BANKLARI MISOLIDA)	174
Eshboyev Shahobiddin Anorqul o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	183
Aslanova Dilnoza Fatilloevna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TASHKILOT BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: NAZARIY YONDASHUVLAR VA BAHOLASH METODOLOGIYASI	187
Raxmonova Nilufar Umedovna	
HUDUDIIY IQTISODIYOT TARKIBIIY O'ZGARISHLARINI SHAKLLANTIRISHDA SANOATLASHUV, XIZMATLAR SEKTORI VA INVESTITSIYALARINING ROLI	196
Raxmonqulova Nafisa Olimjon qizi	
SOLIQ BAZASI TUSHUNCHASI, UNING MAZMUNI VA IQTISODIY MOHIYATI	201
Gadoyeva Nilufar Erkinovna	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA KORXONALARNING MOLIVAVIY MENEJMENT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	208
Atadjanova Sevinch Qurbonbayevna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ELEKTRON TIJORAT SUBYEKTLARINI SOLIQA TORTISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	214
Homidov Baxtiyor Rahimberdievich	
XIZMATLAR SOHASIDA INNOVATSION MARKETINGNI QO'LLASH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING TASHKILIIY-IQTISODIY MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	222
I.R.Sabirjanova	
OPPORTUNITIES FOR UTILIZING TAX INCENTIVES GRANTED TO SMALL AND MEDIUM-SIZED ENTERPRISES FOR THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THEREGIONAL ECONOMY	228
Palvanbayev Umidbek Uktam o'g'li	
MINTAQAVIIY TURISTIK KLASTERLARNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI: IQTISODIY SAMARADORLIK MODELII	233
Kazokova Dilnoza Bobirovna	
KORPORATIV BOSHQARUVNING QURILISH KORXONALARI IQTISODIY SAMARADORLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY YONDASHUVLARI	238
G'iyosov Ilxom Karimovich	



O'ZBEKISTONDA KAPITAL BOZORINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI TAHLILI	246
Xaitova Gulmira Matsalayevna	
SUV TEJOVCHI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR RIVOJLANISHINING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI	253
Sangirova Umida Ravshanovna	
МЕТОДЫ СИСТЕМ ПРОГНОЗИРОВАНИЯ И ПЛАНИРОВАНИЯ ФИНАНСОВЫХ РЕСУРСОВ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	259
Н. М. Эргашева	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI.....	265
Ishonqulov Nizamjon Fayzullayevich	
Ishbekova Lobar Yunusxonovna	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING TO'LOV QOBILIYATINI TA'MINLASHDA PUL OQIMLARINI BOSHQARISHNING O'RNI.....	271
Ishbekova Lobar Yunusxonovna	
ТЕНДЕНЦИИ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ТАДЖИКИСТАНА ЗА 35 ЛЕТ ГОСУДАРСТВЕННОЙ НЕЗАВИСИМОСТИ	276
Икромни Нуриддин Киём	
Раҳматзода Далер Талбак	
YANGI O'ZBEKISTONDA GILAMCHILIK SANOATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI VA ISTIQBOLLARI	283
Farog'at Xo'jabekova	
MINTAQADA AGROTURIZMNI XORIJIY TAJRIBA ASOSIDA RIVOJLANTIRISH: XALQARO MODELLAR VA O'ZBEKISTON UCHUN INNOVATSION MEXANIZMLAR.....	288
Aliqulov Humoyun Tohir o'g'li	
KICHIK BIZNESDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-BOSHQARUV MEXANIZMI.....	294
Kabilova Shahnoza Jurayevna	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI VA MOBIL ILOVALAR YORDAMIDA CHAKANA BANK XIZMATLARINI KO'RSATISH	301
Parpiboyeva Lobar Abdikomilovna	
TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV MIJOZLARNI MOLIYALASHTIRISHNING TAHLILI	308
Abduraxmanov Farrux Talipjanovich	
TURIZM SOHASI BARQAROR RIVOJLANISHINING ASOSIY TENDENSIYALARI VA TARKIBIY O'ZGARISHLARI TAHLILI	316
O'sarov Abdulla Davronqulovich	
KICHIK BIZNES SOHASIDA INSON KAPITALI VA MEHNAT MUNOSABATLARINING IJTIMOIY-IQTISODIY AHAMIYATI, MOHIYATI VA NAZARIY YONDASHUVLAR.....	323
Ulug'muradova Nodira Berdimuradovna	



KICHIK BIZNES SOHASIDA INSON KAPITALI VA MEHNAT MUNOSABATLARINING IJTIMOIIY-IQTISODIY AHAMIYATI, MOHIYATI VA NAZARIY YONDASHUVLAR

Ulug'muradova Nodira Berdimuradovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsenti

E-mail: nodi_79.79@mail.ru

ORCID: 0009-0000-8164-012X

Annotatsiya. Mazkur maqolada kichik biznes sohasida inson kapitali va mehnat munosabatlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, iqtisodiy mohiyati hamda ularni tadqiq etishning nazariy yondashuvlari yoritilgan. Inson kapitalining bilim, kasbiy malaka, ko'nikma, tajriba, innovatsion qobiliyat va mehnat salohiyatini o'zida mujassamlashtiruvchi iqtisodiy resurs sifatidagi xususiyatlari nazariy jihatdan asoslangan. Kichik biznes subyektlarida inson kapitalidan samarali foydalanish bilan mehnat munosabatlarini rivojlantirish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ochib berilgan. Shuningdek, inson kapitali va mehnat munosabatlariga oid klassik, neoklassik, institutsional, inson kapitali va zamonaviy kompetensiyaviy yondashuvlar tizimlashtirilgan. Kichik biznesda xodimlarning kasbiy salohiyatini rivojlantirish, munosib mehnat sharoitlarini shakllantirish, mehnat motivatsiyasini kuchaytirish va ish beruvchi bilan xodim manfaatlarini uyg'unlashtirishning korxonalar raqobatbardoshligini oshirishdagi ahamiyati asoslangan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, inson kapitali, mehnat munosabatlari, mehnat resurslari, inson resurslari, bilim, malaka, kompetensiya, mehnat motivatsiyasi, mehnat unumdorligi, bandlik, raqobatbardoshlik.

Аннотация. В статье освещаются социально-экономическое значение и экономическая сущность человеческого капитала и трудовых отношений в сфере малого бизнеса, а также теоретические подходы к их исследованию. Теоретически обоснованы особенности человеческого капитала как экономического ресурса, объединяющего знания, профессиональную квалификацию, навыки, опыт, инновационные способности и трудовой потенциал. Раскрыта взаимосвязь между эффективным использованием человеческого капитала и развитием трудовых отношений в субъектах малого бизнеса. Также систематизированы классический, неоклассический, институциональный подходы, теория человеческого капитала и современный компетентностный подход к исследованию человеческого капитала и трудовых отношений. Обосновано значение развития профессионального потенциала работников, формирования достойных условий труда, усиления трудовой мотивации и согласования интересов работодателя и работника для повышения конкурентоспособности предприятий малого бизнеса.

Ключевые слова: малый бизнес, человеческий капитал, трудовые отношения, трудовые ресурсы, человеческие ресурсы, знания, квалификация, компетенция, трудовая мотивация, производительность труда, занятость, конкурентоспособность.

Abstract. This article examines the socio-economic significance and economic essence of human capital and labor relations in the small business sector, as well as theoretical approaches to their study. The characteristics of human capital as an economic resource encompassing knowledge, professional qualifications, skills, experience, innovative capabilities, and labor potential are theoretically substantiated. The interrelationship between the effective use of human capital and the development of labor relations in small business entities is revealed. The classical, neoclassical, institutional, human capital, and modern competency-based approaches to the study of human capital and labor relations are also systematized. The importance of developing employees' professional potential, creating decent working conditions, strengthening work motivation, and aligning the interests of employers and employees in enhancing the competitiveness of small businesses is substantiated.

Keywords: small business, human capital, labor relations, labor resources, human resources, knowledge, qualifications, competence, work motivation, labor productivity, employment, competitiveness.



KIRISH

Jahon iqtisodiyotida kechayotgan tarkibiy va texnologik o'zgarishlar sharoitida kichik biznes subyektlarining barqaror rivojlanishi tobora ko'proq ularning moddiy va moliyaviy resurslari hajmiga emas, balki mavjud inson kapitalining sifati hamda mehnat munosabatlarini samarali tashkil etish darajasiga bog'liq bo'lib bormoqda. Raqamlashtirish, innovatsion faoliyatning jadallashuvi, mehnat mazmunining murakkablashuvi, kasbiy kompetensiyalarga qo'yilayotgan talablarning o'zgarishi va bozordagi raqobatning kuchayishi natijasida xodimning bilim, malaka, tajriba, kasbiy ko'nikma, ijodkorlik va tashabbuskorlik qobiliyatlari korxonaning strategik iqtisodiy resursiga aylanmoqda.

Kichik biznes iqtisodiy tizimda nafaqat tovar va xizmatlar ishlab chiqaruvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar majmui, balki yangi ish o'rinlarini yaratish, aholining iqtisodiy faolligini oshirish, tadbirkorlik tashabbuslarini ro'yobga chiqarish, daromad manbalarini diversifikatsiyalash va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashning muhim institutsional shakli sifatida namoyon bo'ladi. Uning mazkur funksiyalarni samarali bajarishi korxonalarda inson kapitalini shakllantirish, rivojlantirish va undan unumli foydalanish uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan chambarchas bog'liq.

Iqtisodiy mazmuniga ko'ra, inson kapitali shaxsda mujassamlashgan bilim, ta'lim, kasbiy malaka, amaliy tajriba, kompetensiya, ijodiy salohiyat va boshqa ishlab chiqaruvchi qobiliyatlarning oddiy yig'indisi emas. U tegishli investitsiyalar ta'sirida shakllanadigan va rivojlanadigan, mehnat faoliyati jarayonida iqtisodiy qiymat yaratishga xizmat qiladigan hamda korxona va xodim uchun muayyan iqtisodiy samara keltiradigan kapital shaklidir.

Biroq inson kapitalining mavjudligi o'z-o'zidan yuqori iqtisodiy samaradorlikni ta'minlamaydi. Xodimlarda shakllangan bilim, malaka va kompetensiyalarning iqtisodiy natijaga aylanish darajasi ko'p jihatdan korxonadagi mehnat munosabatlarining mazmuni va sifatiga bog'liq. Mehnatga haq to'lashning adolatligi, moddiy va nomoddiy rag'batlantirish tizimi, mehnat sharoitlari, kasbiy rivojlanish imkoniyatlari hamda ish beruvchi va xodim o'rtasidagi ishonch inson kapitalidan foydalanish samaradorligini belgilovchi muhim omillardir.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqotning maqsadi kichik biznes sohasida inson kapitali va mehnat munosabatlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati hamda iqtisodiy mohiyatini nazariy jihatdan ochib berish, ularga oid ilmiy yondashuvlarni tizimlashtirish va ushbu kategoriyalarning o'zaro ta'sir mexanizmini kichik biznes xususiyatlaridan kelib chiqib aniqlashtirishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes sohasida inson kapitali va mehnat munosabatlarining ijtimoiy-iqtisodiy mazmunini tadqiq etishga oid ilmiy qarashlar iqtisodiy tafakkurning turli bosqichlarida shakllangan. Dastlab insonning mehnat jarayonidagi o'rni, mehnat unumdorligi va kasbiy mahoratning iqtisodiy qiymati masalalari o'rganilgan bo'lsa, keyinchalik bilim, malaka va tajribaga yo'naltirilgan xarajatlarni investitsiya sifatida baholash hamda xodim kompetensiyalarini korxona raqobat ustunligining strategik manbai sifatida talqin qilish rivojlandi.

A. Smit inson tomonidan egallangan foydali qobiliyat va mahoratni shakllantirish muayyan xarajatlarni talab qilishi hamda ular keyinchalik yuqori mehnat samaradorligi orqali o'z qiymatini qaytarishini ta'kidlagan. A. Marshall esa ta'lim, bilim va kasbiy tayyorgarlikni ishlab chiqarish samaradorligini oshiruvchi muhim omillar qatoriga kiritgan.

Inson kapitali nazariyasining mustaqil ilmiy konsepsiya sifatida shakllanishi T. Shults, G. Bekker va J. Minser tadqiqotlari bilan bog'liq. T. Shults insonlarning bilim va qobiliyatlarini rivojlantirishga sarflanadigan resurslarni kelgusida iqtisodiy qaytim keltiradigan investitsiyalar sifatida baholagan. G. Bekker ta'lim, kasbiy tayyorgarlik va tajribaga sarflanadigan xarajatlar bilan xodimning kelgusidagi unumdorligi va daromadlari o'rtasidagi bog'liqlikni asoslagan. J. Minser esa ta'lim va mehnat tajribasining daromadlar shakllanishidagi rolini empirik jihatdan tadqiq etgan.

J. Barney tomonidan rivojlantirilgan resursga asoslangan yondashuvda qimmatli, noyob va oson taqlid qilib bo'lmaydigan inson resurslari korxonaning uzoq muddatli raqobat ustunligi manbai sifatida qaraladi. D. Nortning institutsional yondashuvi esa mehnat munosabatlari formal va noformal qoidalar, shartnomalar, tashkilotning ichki normalari hamda manfaatlarni muvofiqlashtiruvchi institutlar ta'sirida shakllanishini asoslaydi.

Mavjud ilmiy adabiyotlarning qiyosiy tahlili inson kapitaliga oid tadqiqotlarda ta'lim, malaka va tajribaga investitsiyalar, mehnat munosabatlariga oid ishlarda esa bandlik, ish haqi, mehnat bozori, motivatsiya va ijtimoiy sheriklik masalalari ko'proq mustaqil o'rganilganini ko'rsatadi. Shu sababli kichik biznes sharoitida inson kapitali va mehnat munosabatlarining o'zaro ta'sirini yagona nazariy tizim asosida tadqiq etish dolzarb hisoblanadi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida inson kapitali va mehnat munosabatlarining iqtisodiy mazmuniga oid ilmiy qarashlarni o'rganishda tizimli va qiyosiy tahlil, ilmiy abstraksiyalash, mantiqiy tahlil, guruhlash, induksiya va deduksiya, nazariy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Inson kapitalining shakllanishi va undan foydalanish jarayonlari bilan mehnat munosabatlari o'rtasidagi bog'liqlik tizimli yondashuv asosida tadqiq etildi. Klassik, neoklassik, institutsional va inson kapitali nazariyalaridagi ilmiy qarashlarni o'zaro taqqoslash orqali kichik biznes sharoitida mazkur iqtisodiy kategoriyalarning namoyon bo'lish xususiyatlari aniqlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kichik biznes sohasida inson kapitali va mehnat munosabatlarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini tadqiq etish ushbu kategoriyalarning iqtisodiy jarayondagi funksional o'rni hamda o'zaro ta'sirini aniqlashtirishni talab etadi. Nazariy qarashlarning qiyosiy tahlili an'anaviy yondashuvlarda inson asosan ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etuvchi mehnat resursi sifatida baholangan bo'lsa, bilimlarga asoslangan iqtisodiyot sharoitida uning bilim, malaka, kasbiy tajriba, kompetensiya, ijodiy salohiyat va innovatsion qobiliyatlari mustaqil iqtisodiy qiymat yaratuvchi kapital sifatida namoyon bo'layotganini ko'rsatadi.

Tahlillar asosida "mehnat resursi", "inson resursi" va "inson kapitali" tushunchalarini mazmunan farqlash muhim. Mehnat resursi insonning mehnat jarayonida ishtirok etish imkoniyatini, inson resursi uning tashkilot faoliyatiga jalb etilgan kasbiy va shaxsiy imkoniyatlarini, inson kapitali esa ushbu imkoniyatlarning investitsiyalar ta'sirida shakllangan, rivojlanadigan va iqtisodiy qiymat yaratishga qodir qismini ifodalaydi.

Shu asosda kichik biznesdagi inson kapitalini xodim va tadbirkorda mujassamlashgan, ta'lim, kasbiy tayyorgarlik, amaliy faoliyat va doimiy rivojlanish jarayonida shakllanadigan bilim, malaka, tajriba, kompetensiya, ijodiy-innovatsion qobiliyat va tadbirkorlik salohiyatining korxona uchun qo'shimcha qiymat yaratish, mehnat unumdorligini oshirish hamda barqaror raqobat ustunligini ta'minlashga qodir bo'lgan iqtisodiy resurslari majmui sifatida talqin qilish taklif etiladi (1-jadval).

1-jadval

Kichik biznesda inson kapitalining tarkibiy elementlari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy natijalari

Inson kapitali elementi	Iqtisodiy mazmuni	Kichik biznesda namoyon bo'lishi	Asosiy natija
Bilim-ta'lim kapitali	Umumiy va maxsus bilimlar zaxirasi	Zamonaviy texnologiya va ish usullarini o'zlashtirish	Qarorlar sifati va ish samaradorligi oshishi
Kasbiy-malaka kapitali	Malaka, kasbiy ko'nikma va mahorat	Ish operatsiyalarini sifatli va tez bajarish	Mehnat unumdorligi oshishi
Tajriba kapitali	Amaliy faoliyatda to'plangan bilim va ko'nikmalar	Muammolarni tezkor hal qilish, xatolarni kamaytirish	Vaqt va tranzaksiya xarajatlari qisqarishi
Kompetensiyaviy kapital	Bilim va ko'nikmalarni vaziyatga mos qo'llash qobiliyati	Ko'p funksiyali faoliyat va o'zgarishlarga moslashish	Funksional moslashuvchanlik kuchayishi
Innovatsion kapital	Yangi g'oya va yechimlarni yaratish va joriy etish qobiliyati	Mahsulot, xizmat va biznes jarayonlarini yangilash	Innovatsion faollik va raqobatbardoshlik oshishi
Tadbirkorlik kapitali	Imkoniyatlarni aniqlash, tashabbus va asoslangan tavakkal	Yangi bozor, mahsulot va xizmatlarni o'zlashtirish	Daromad manbalari kengayishi
Ijtimoiy-kommunikativ kapital	Ishonch, hamkorlik va samarali muloqot	Jamoa, mijoz va hamkorlar bilan barqaror aloqalar	Jamoaviy samaradorlik va mijozlar sodiqligi oshishi

Inson kapitali korxonaning potensial iqtisodiy imkoniyati bo'lsa, mehnat munosabatlari ushbu imkoniyatni real iqtisodiy natijaga aylantiruvchi mexanizm vazifasini bajaradi. Xodimning bilim va malakasi qanchalik yuqori bo'lmasin, agar korxonada uning tashabbusini rag'batlantirish, kasbiy rivojlanishini ta'minlash, mehnatini adolatli baholash va natijaga mos mukofotlash tizimi mavjud bo'lmasa, inson kapitalining iqtisodiy qaytimi pasayadi.

Tadqiqot natijasida kichik biznesdagi mehnat munosabatlarini ish beruvchi va xodim o'rtasida inson kapitalini shakllantirish, rivojlantirish va undan samarali foydalanish, mehnat jarayoni va natijalarini tashkil etish, baholash va rag'batlantirish hamda tomonlarning iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarini muvofiqlashtirish jarayonida yuzaga keladigan tashkiliy-iqtisodiy, institutsional va ijtimoiy munosabatlarning yaxlit tizimi sifatida talqin qilish taklif etiladi.



Kichik biznesda inson kapitali va mehnat munosabatlari o'rtasidagi bog'liqlik ikki tomonlama xususiyatga ega. Bir tomondan, inson kapitalining sifati xodimning mustaqilligi, boshqaruv qarorlaridagi ishtiroki, kasbiy o'sish va rag'batlantirishga bo'lgan talablarini kuchaytiradi. Ikkinchi tomondan, samarali mehnat munosabatlari xodimga yangi bilimlarni egallash, tashabbus ko'rsatish va tajriba almashish imkonini berib, inson kapitalining uzluksiz rivojlanishini ta'minlaydi (2-jadval).

2-jadval

Kichik biznesda inson kapitalidan foydalanish samaradorligiga ta'sir qiluvchi mehnat munosabatlari omillari

Omillar guruhi	Asosiy tarkibiy elementlar	Inson kapitaliga ta'siri	Kichik biznesdagi kutiladigan samara
Iqtisodiy	Ish haqi, mukofot, natijaga asoslangan rag'bat, foydadan manfaatdorlik	Mehnat faolligi va kapital qaytimini kuchaytiradi	Unumdorlik va xodimlar sodiqligi oshadi
Tashkiliy	Mehnat taqsimoti, vakolat, mas'uliyat, moslashuvchan ish jarayoni	Bilim va kompetensiyalarni safarbar etadi	Tezkorlik, moslashuvchanlik va boshqaruv sifati oshadi
Rivojlantiruvchi	Ta'lim, malaka oshirish, qayta tayyorlash, bilim almashish	Yangi bilim va kompetensiyalarni shakllantiradi	Innovatsion salohiyat va kasbiy o'sish kuchayadi
Ijtimoiy-institutsional	Mehnat huquqlari, ishonch, adolat, ijtimoiy himoya, tashkilot madaniyati	Inson kapitalini saqlash va undan barqaror foydalanishni ta'minlaydi	Kadrlar almashinuvi kamayib, ijtimoiy barqarorlik kuchayadi

Tadqiqot davomida inson kapitali va mehnat munosabatlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati xodim, korxona, hudud va jamiyat darajasida namoyon bo'lishi aniqlandi. Xodim darajasida kasbiy salohiyat va daromad imkoniyatlari, korxona darajasida unumdorlik, innovatsion faollik va raqobatbardoshlik, hudud darajasida samarali bandlik va tadbirkorlik faolligi, jamiyat darajasida esa inson salohiyatining sifati va ijtimoiy barqarorlik oshadi (3-jadval).

3-jadval

Kichik biznesda inson kapitali va mehnat munosabatlarning ijtimoiy-iqtisodiy natijalari


Ta'sir darajasi	Inson kapitali orqali	Mehnat munosabatlari orqali	Integral ijtimoiy-iqtisodiy natija
Xodim	Bilim, malaka, tajriba va kompetensiyalar rivojlanishi	Motivatsiya, adolatli baholash, kasbiy o'sish va munosib mehnat	Daromad va mehnat bozorida raqobatbardoshlik oshishi
Korxona	Yuqori malakali, innovatsion va moslashuvchan xodimlar	Manfaatlar uyg'unligi, sodiqlik va xodimlar barqarorligi	Unumdorlik, innovatsion faollik, daromadlilik va raqobatbardoshlik oshishi
Hudud	Mahalliy mehnat salohiyati va kompetensiyalar rivojlanishi	Samarali va barqaror bandlik kengayishi	Tadbirkorlik faolligi, hududiy daromad va iqtisodiy faollik ortishi
Jamiyat	Inson salohiyati sifatining yuksalishi	Munosib mehnat, ijtimoiy sheriklik va himoya	Ijtimoiy barqarorlik, farovonlik va inklyuziv rivojlanish kuchayishi

O'tkazilgan nazariy tahlil asosida kichik biznesda inson kapitali va mehnat munosabatlarning o'zaro ta'sirini "shakllantirish – safarbar etish – transformatsiya – natija – qayta investitsiyalash" sikli orqali izohlash taklif etiladi. Ushbu yondashuvda mehnat munosabatlari inson kapitaliga kiritilgan investitsiyalarning iqtisodiy qaytimini shakllantiruvchi transmissiya mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

1–3-jadvallarda keltirilgan natijalar inson kapitalining tarkibiy sifati, mehnat munosabatlarning institutsional va rag'batlantiruvchi xususiyatlari hamda yakuniy ijtimoiy-iqtisodiy samaralar o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Mazkur bog'liqlikni tizimli tarzda ifodalash maqsadida quyidagi o'zaro ta'sir mexanizmi taklif etiladi.



Kichik biznesda inson kapitali va mehnat munosabatlarning o'zaro ta'sir mexanizmi



1-rasm. Kichik biznesda inson kapitali va mehnat munosabatlarning o'zaro ta'sir mexanizmi

Rasmda inson kapitaliga investitsiya kiritishdan boshlab ijtimoiy-iqtisodiy natijaga erishishgacha bo'lgan uzviy jarayon aks ettirilgan. Ta'lim, malaka oshirish, qayta tayyorlash, tajriba almashish va texnologik bilimlarga investitsiyalar inson kapitalining bilim, malaka, tajriba, kompetensiya, innovatsion qobiliyat va tadbirkorlik salohiyati ko'rinishidagi tarkibiy elementlarini shakllantiradi.

Mehnat munosabatlari mexanizmi mazkur salohiyatni iqtisodiy qiymatga aylantirishda markaziy o'rin egallaydi. Mehnatni tashkil etish, motivatsiya va rag'batlantirish, kasbiy rivojlanish, xodimlarning qaror qabul qilishdagi ishtiroki hamda ijtimoiy himoya inson kapitalining amaliy faoliyatga safarbar etilishini ta'minlaydi. Natijada mehnat unumdorligi, ish sifati, innovatsion faollik va raqobatbardoshlik oshadi.

Modelning muhim jihati qayta investitsiyalash konturining mavjudligidir. Kichik biznes faoliyatidan olingan iqtisodiy natijalarning ma'lum qismini xodimlar ta'limi va kasbiy rivojlanishiga yo'naltirish inson kapitalining takror ishlab chiqarilishini ta'minlaydi va barqaror rivojlanish siklini shakllantiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari kichik biznesning barqaror rivojlanishi inson kapitalining sifat darajasi va mehnat munosabatlarning samarali tashkil etilishi bilan bevosita bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Inson kapitalining iqtisodiy ahamiyati xodimlarning bilim, malaka, tajriba va kompetensiyalarini korxona uchun qo'shimcha qiymat yaratadigan resursga aylantirish imkoniyati bilan belgilanadi.

Nazariy yondashuvlarning umumlashtirilishi inson kapitalini rivojlantirish bilan mehnat munosabatlarni takomillashtirish o'zaro bog'liq jarayonlar ekanligini ko'rsatdi. Xodimning bilim va malakasiga investitsiya kiritishning o'zi yetarli bo'lmay, ushbu kapitaldan samarali foydalanishni ta'minlaydigan motivatsiya, munosib mehnat sharoitlari, samarali rag'batlantirish va manfaatlar uyg'unligi talab etiladi.

Shu jihatdan kichik biznesda inson kapitalini rivojlantirish va mehnat munosabatlarni takomillashtirishni yagona tashkiliy-iqtisodiy tizim doirasida amalga oshirish mehnat unumdorligini oshirish, malakali xodimlarni saqlab qolish, innovatsion faollikni kuchaytirish hamda uzoq muddatli raqobat ustunligini shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Smith A. *An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations*. – London, 1776.
2. Marshall A. *Principles of Economics*. – London: Macmillan, 1890.
3. Schultz T.W. Investment in Human Capital // *The American Economic Review*. – 1961. – Vol. 51, No. 1. – P. 1–17.
4. Becker G.S. *Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education*. – Chicago: University of Chicago Press, 1964.
5. Mincer J. *Schooling, Experience, and Earnings*. – New York: Columbia University Press, 1974.
6. Barney J. Firm Resources and Sustained Competitive Advantage // *Journal of Management*. – 1991. – Vol. 17, No. 1. – P. 99–120.
7. Coleman J.S. Social Capital in the Creation of Human Capital // *American Journal of Sociology*. – 1988. – Vol. 94. – P. 95–120.
8. North D.C. *Institutions, Institutional Change and Economic Performance*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990.
9. Armstrong M., Taylor S. *Armstrong's Handbook of Human Resource Management Practice*. – London: Kogan Page.
10. International Labour Organization. *Decent Work and the Sustainable Development Goals*. – Geneva: ILO.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 9/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>